

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA

**TARIXIY ROMANLAR DISKURSINING LISONIY TADQIQI
(Muhammad Ali asarlari asosida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD) in
philological sciences**

Jo‘rayeva Nasibaxon Ganiyevna

Tarixiy romanlar diskursining lisoniy tadqiqi (Muhammad Ali asarlari asosida)... 3

Жураева Насибaxon Ганиевна

Лингвистическое исследование дискурса исторических романов (на материале произведений Мухаммеда Али) 25

Juraeva Nasibakxon Ganievna

linguistic analysis of the discourse of historical novels (based on the works of Muhammad Ali) 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published word 56

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.07.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JO‘RAYEVA NASIBAXON GANIYEVNA

**TARIXIY ROMANLAR DISKURSINING LISONIY TADQIQI
(Muhammad Ali asarlari asosida)**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Fil5458 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Andijon davlat universitetning veb-sahifasi (www.adu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shaxabitdinova Shohida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Usmanov Farhodjon Faxriddinovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Toshxujayeva Shoiraxon G'aniyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:


Namangan davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Fil.07.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil " 8 " april soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon shahar, Universitet ko'chasi 129-uy. Telefon/faks: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu_info@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Andijon davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (23 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahri, Universitet ko'chasi, 129-uy. Tel.: 0 (374) 223 88 14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 26 " mart kuni tarqatildi.
(2026-yil " _____ " _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).




D.H. Quronov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor


N.N. Azizov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.f.d., (PhD)


M.M. Saidxonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida muayyan bir milliy tilning tarixiy taraqqiyotini va butun ifoda imkoniyatlarini o'zida namoyon etuvchi platforma sifatida badiiy diskursning til xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilish doimiy dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Til kishilar o'rtasida faqat aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, til egalari tomonidan qo'lga kiritilgan ulkan ma'naviy boyligni o'zida jamlab, kelajak avlodga yetkazuvchi va tinglovchiga emotsional-ekspressiv ta'sir qiluvchi vosita hamdir. Bu esa uning kommunikativ, kumulyativ va ekspressiv vazifalari orqali namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida ham bugungi kunda badiiy asarlar tilini zamonaviy tadqiq usullari, xususan, lingvopoetik va lingvomadaniy tamoyillar asosida tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, o'zbek tarixiy romanlari diskursida olamning lisoniy manzarasining badiiy voqelanishi, tarixiy til birliklarini lingvomadaniy va lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida tadqiq etish muhim ahamiyatga ega. O'zbek tarixiy romanlari diskursida adibning voqelik tasvirlangan davrdagi olamning lisoniy manzarasini aks ettirish mahoratini ochib berish masalasi deyarli o'rganilgan emas. Mazkur holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi. Zero, "O'zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko'plab vazifalar turibdi. Avvalo, yuksak taraqqiy etgan demokratik davlatlarda bo'lgani kabi davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat'i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarur"¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarorlari, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ma'lumki, badiiy diskursda shoir va yozuvchilar, bir tomondan, jonli xalq tili boylıklaridan mohirona foydalanib, asar

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbek tili bayramining 35 yilligi munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi //https.president.uz. (Murojaat sanasi: 24.11.2024)

jozibadorligini ta'minlasalar, ayni paytda, ijodkor tafakkuri va ifoda yo'sini orqali shakllangan milliy mentalitetga xos obrazli va uslubiy bo'yoqdor ifodalar umummilliy tilni boyitib boradi. Shunday ekan, xalq hayotida chuqur iz qoldirgan davrlarga oid voqeliklar tasvirlangan tarixiy asarlar tili va uslubini lingvopoetik va lingvomadaniy jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon tilshunosligida badiiy asar tili masalasidagi tadqiqotlar ilmiy-metodik yo'nalishdagi qator sohalar: kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika va psixolingvistika bilan hamkorlikda rivojlanish yo'li ostonasida turgan fan sohasidir.

Dunyo tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlarning tarkibiy ko'lamini kengaytib, badiiy diskursning, ayniqsa, nasriy asarlarning lingvomadaniy, sotsiolingvistik, psixolingvistik va pragmalingvistik xususiyatlarini o'rganish borasida izlanishlar olib borilmoqda. Tadqiqotlarda mazkur yondashuvlarning asosi, metodologik texnologiyalari, badiiy diskursda lisoniy birliklarning kognitiv-pragmatik tadqiqi kabi masalalar o'rganilmoqda.

G'arb va rus tilshunosligida V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.A.Potebnya, L.V.Sherba, V.M.Jirmunskiy, B.A.Larin, R. Bart, A.A.Lipgart, Y.M.Lotman² kabilar va o'zbek tilshunosligida B.Yo'ldoshev, S.A.Karimov, I.K.Mirzayev, M.Yo'ldoshev, D.S.Xudoyberganovalar³ tadqiqotlarida dastlab stilistika negizida, keyinroq, mustaqil yo'nalish sifatida lingvopoetikaning nazariy masalalari takomillashib borgan. O'zbek tilshunosligida badiiy asarlarning til xususiyatlari tadqiqi alohida muammo sifatida belgilangan tadqiqotlar keng ko'lamda va turli aspektlarda olib borilgan. Shuningdek, keyingi yillarda dunyo tilshunosligidagi zamonaviy yo'nalishlar va yangicha qarashlar negizida o'zbek tilshunosligida OLMning nazariy tadqiqiga bag'ishlangan turli talqinlarga e'tibor kuchaya boshladi⁴.

² Bu haqda qarang: Виноградов В. Стиль Пушкина. – М.: 1-й Образцовой типографии ОГИЗА РСФСР треста “Полиграфкнига”, 1941. – 619 с. <https://n.ziyouz.com/books>. (Murojaat sanasi: 29.08.2024); Виноградов В.В. Избранные труды. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – 512 с.; Винокур Г. Очерки по лингвистике. – М.: Издательство иностранной литературы, 1962. – 646 с.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 344 с.; Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 432 с.; Жирмунский В.М. Поэтика А. Блока / Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 205 – 238; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – 288 с.; Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. – 616 с.; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое сопоставление. Теория и метод. – М.: Московский лицей, 1994. – 184 с.; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: КомКнига, 2006. – 168 с.; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – СПб.: Искусство, 1996. – 846 с.

³ Bu haqda qarang: Ёўлдошев Б., Шодиев З. “Уфк” трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари. – Самарқанд, 2006. – 126 б.; Каримов С. Бадий услуб ва тилинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – 72 б.; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.; Ёўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 313 б.; Ёўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 256 б.; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

⁴ Bu haqda qarang: Nasrullaeva N.Z. Ingliz va o'zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarning shakllanishi: Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 71 b.; Ikramova S.A. Olamning lisoniy manzarasida makon kategoriyasi va milliy o'ziga xoslik: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2018. – 51 b.; Baynazarov Z. Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asarida ifodalangan olamning lisoniy manzarasi: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 44 b.; Nasirova G.M. Olamning lisoniy manzarasida emotsional konseptlar: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Qo'qon, 2022. – 59 b.; Akbarova Z. Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kognitiv o'ziga xoslik: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2021. – 76 b.

Ma'lumki, milliy-madaniy mentalitetning o'ziga xos ifodasi sifatida olamning badiiy lisoniy manzarasi tadqiqi jahon tilshunosligida dolzarb sohalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirga qadar tilshunosligimizda olamning lisoniy manzarasi nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan tadqiqotlar, asosan, kognitiv va konseptual yondashuv masalalarini yoritishga qaratilgan. Lekin o'zbek tarixiy romanlari diskursining lisoniy tadqiqi lingvopoetik tahlil doirasida maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Shu bilan birgalikda, tarixiy asarlarda adibning o'sha davrdagi olamning lisoniy manzarasini aks ettirish mahoratini ochish masalasi ham o'zbek tilshunosligida yetarli o'rganilgan deb bo'lmaydi. Shu nuqtayi nazardan, Muhammad Ali tarixiy asarlarining lisoniy xususiyatlarini o'rganish lingvopoetik tadqiqot uchun boy manba hisoblanadi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Ali hozirgi kunda "Sarbadorlar", "Ulug' saltanat" romanlar turkumi bilan o'zbek adabiyotida o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'lgan adiblardan biridir. Mazkur tarixiy romanlar adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan keng o'rganilgan bo'lsa⁵-da, lekin ular hanuzgacha lingvistik tadqiqot obyekti bo'lgan emas.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Tilshunoslik va lingvodidaktikaning dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Muhammad Ali asarlari misolida tarixiy romanlar diskursini leksik-semantik, morfologik, lingvomadaniy va lingvopoetik tahlil tamoyillari asosida tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi va badiiy lisoniy manzarasi tushunchalari ilmiy talqinining o'ziga xos jihatlari xususidagi nazariy qarashlarni umumlashtirish va ularga munosabat bildirish;

tarixiy romanlar diskursida Muhammad Alining olamning badiiy lisoniy manzarasini aks ettirish mahoratini aniqlash;

tarixiy haqiqatni yoritishda tarixiy so'zlarning ahamiyatini ko'rsatish, Muhammad Alining tarixiy romanlarida tarixiy so'zlarning uyadoshlik munosabatini belgilash hamda mavzu guruhlari bo'yicha ichki tasnifini ko'rsatish;

romanlardagi tarixiy so'zlarning so'z turkumlari doirasidagi tasnifini belgilash;

adib ijodiga xos uslubiy qo'llanishlar asosida leksemalarning uyadoshlik, ma'nodoshlik, ziddoshlik, graduonimik va partonimik munosabatlarining lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berish;

Muhammad Ali romanlarining lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishda til birliklarining voqelanishi masalasini o'rganish;

Muhammad Ali romanlarining diskursiv va lingvopoetik xususiyatlarini yoritishda polisemantik so'zlar poetikasi, badiiy tasvir va ifoda vositalarining

⁵ Yaxshieva Z.R. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning badiiy ifodasi: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2021. – 51 b.; Mardonova L.U. Muhammad Alining "Ulug' saltanat" roman-tetralogiyasidagi obrazlarning badiiy poetik talqini: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Qarshi, 2022. – 54 b.

lingvomadaniy xususiyatlari va iboralarning ifoda imkoniyatlarining lisoniy asoslarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti. O‘zbekiston xalq yozuvchisi Muhammad Alining “Sarbadorlar”, “Ulug‘ saltanat” romanlar turkumi (“Jahongir Mirzo”, “Umarshayx Mirzo”, “Mironshoh Mirzo”, “Shohruh Mirzo”) tadqiqot obyekti qilib olingan.

Tadqiqotning predmetini Muhammad Ali romanlari misolida o‘zbek tarixiy romanlari diskursining leksik, morfologik birliklari hamda lingvomadaniy va lingvopoetik vositalarining lisoniy asoslarini yoritib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsifiy, tasnifiy, sistem-struktur, funksional-semantik, lingvomadaniy va lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Muhammad Alining tarixiy romanlari diskursi olamning badiiy lisoniy manzarasi doirasida leksik-semantik, morfologik va lingvopoetik xususiyatlari, so‘z tanlashdagi uslubiy mahorati, arxaizm va istorizmlarni qo‘llashda tarixiylik va zamonaviylik tamoyillarining uyg‘unlashuvi, individual ifodalar va ravon ifoda yo‘sini kabi o‘ziga xosliklar tizimi ochib berilgan;

tarixiy davrni ifodalovchi leksik birliklar onomastik nomlar, shaxs nomlari, harbiy, soliq tizimiga oid leksemalar kabi 12 ta ma’noviy guruhga, so‘z turkumlari nuqtayi nazaridan esa 8 ta grammatik guruhga mansubligi aniqlangan;

Muhammad Alining uslubiga xos bo‘lgan ifodalarda eskirgan leksemalar orasidagi uyadoshlik, sinonimlik, antonimlik, omonimlik, graduonimik va partonimik munosabatlarning lingvomadaniy o‘ziga xosliklari aniqlangan;

romanlarning diskursiv va lingvopoetik xosligini ta’minlovchi badiiy ifoda vositalari – *metafora, metonimiya, polisemantik birliklar, vulgarizm, dialektizm, epitet, o‘xshatish, takror, oksyumoron* kabi stilistik vositalar asosida yuzaga kelgan poetik imkoniyatlar hamda muallifning okkazional ifoda yaratishdagi mahorati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

taniqli adib Muhammad Ali ijodi misolida tarixiy romanlar diskursining lisoniy tadqiqi o‘zbek tilining leksik, morfologik sathlariga oid til birliklari hamda badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvomadaniy belgilari va lingvopoetik imkoniyatlari ochib berilgan;

dissertatsiyada to‘plangan materiallar va taqdim etilgan xulosalar tarixiy asarlar diskursi lingvopoetikasi bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tarixiy romanlar diskursining lisoniy tadqiqi ko‘lamini izohlashda o‘zbek tilining leksik, morfologik sathlari, lingvomadaniy belgilari va lingvopoetik imkoniyatlariga tayanilganligi, badiiy tasvir va ifoda vositalarining individual xususiyatlari tadqiq qilinib, ilmiy xulosalar chiqarilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqotda erishilgan ilmiy natijalar hozirgi davr tilshunosligi bo‘yicha ilmiy ish olib borayotgan magistrlar, ilmiy izlanuvchilarning tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha sistem tilshunoslik, lingvopoetik, leksik-semantik, maydon nazariyasi va pragmatik ma’lumotlar bazasi bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiq etilayotgan masalaning keyinchalik yanada chuqurroq o'rganilishi ham nazariy, ham amaliy jihatdan ahamiyatga ega bo'lib, kelgusida leksikologiya, stilistika, lingvokulturologiya, lingvopoetikaga doir ilmiy tadqiqotlar uchun bevosita material bo'lib xizmat qiladi.

Ishda ilgari surilgan g'oyalar, nazariy qarash va amaliy tavsiyalar darsliklar monografiyalar, o'quv qo'llanmalar yaratishda hamda ma'ruza matnlari tayyorlashda manba bo'la oladi. Dissertatsiya materiallari "Badiiy matn tahlili", "Leksikologiya", "Lingvokulturologiya", "Lingvopoetika" fanlaridan tashkil etilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun ilmiy-amaliy manba vazifasini o'taydi; filologiya yo'nalishidagi tanlov fanlaridan maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda ham samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Muhammad Ali asarlari asosida tarixiy romanlar diskursining lisoniy tadqiqi yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

tarixiy romanlar diskursida olamning badiiy lisoniy manzarasi tushunchasi doirasida leksik-semantik, morfologik, lingvopoetik jihatdan so'z tanlash mahorati, arxaizm va istorizmlarni qo'llashdagi tarixiylik va zamonaviylik tamoyillarining uyg'unlashuvi, individual ifodalar, ravon ifoda yo'sini kabi o'ziga xos xususiyatlari tizimimi o'rganishga doir xulosalaridan Andijon davlat universitetida "OT-F1-18 Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish" davlat fundamental-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida "OT-F1-18 Ommaviy lisoniy madaniyatni shakllantirish metodlar va metodologiyasini ishlab chiqish" davlat fundamental-tadqiqot dasturlari markazining 2025-yil. 22-martdagi 04-992-son ma'lumotnomasi). Natijada faol diskursda lisoniy madaniyatni ta'minlashga oid metodologiya ijtimoiy ta'sirga doir yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

tarixiy romanlardagi diskursiv va lingvopoetik individual xususiyatlarni ta'minlashda nuhim hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa asosidagi polisemantik so'zlar poetikasi, vulgarizm, dialektizm, epitet, o'xshatish, takror, oksyumoron kabi badiiy tasvir va ifoda vositalarining til xususiyatlari va iboralarning ifoda imkoniyatlari, adibning okkazonal ifodalar yaratishdagi individual mahorati, umuman, tarixiy asarlar diskursning lisoniy tadqiqi borasidagi xulosalaridan 2022-2023-yillarda bajarilgan "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida "№ IL-402104213. O'zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug'at ishlab chiqish" davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyiha 2025-yil. 22-martdagi **04-991-son** ma'lumotnomasi). Natijada diskurs tavsifida qo'llaniluvchi ayrim birliklarining o'ziga xosliklari ochib berilgan;

romanlarning diskursiv va lingvopoetik xususiyatlarini yoritishda badiiy tasvir va ifoda vositalarining til xususiyatlari va iboralarning ifoda imkoniyatlari tahlili orqali okkazonal ifodalar yaratishdagi individual mahorati, adibning "Sarbadorlar" va "Ulug' saltanat" romanlarining til xususiyatlari borasidagi qimmatli xulosalar va fikr-mulohazalardan O'zbekiston Milliy

teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi, “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Adabiy jarayon”, “Bedorlik” nomli dasturlar senariysini (2024-2025-yillar) tayyorlash jarayonida keng foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi, “O‘zbekiston” teleradiokanalining 2025-yil. 6-martdagi 05-09-282-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu eshittirish uchun tayyorlangan materiallarning ilmiy ahamiyati yanada mukammalashgan, qiziqarliligi, millatimiz va xalqimizning shonli kechmishi, tilimiz tarixi bilan bog‘liqligi, hayotiyliigi, ilmiy dalillarga boyligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 166 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Olamning lisoniy manzarasi va badiiy lisoniy manzarasi**” deb nomlanib, OLMning ilmiy tushuncha sifatidagi talqini, uning in’ikosi sifatidagi olamning badiiy manzarasi va badiiy diskurs, tarixiy romanlar diskursi tushunchalari atroflicha tadqiq qilingan va nazariy manbalarga munosabat bildirilgan. Bobning birinchi fasli “Olamning lisoniy manzarasi ilmiy tushuncha sifatida” deb nomlanadi. Antroposentrik paradigmaning jadal rivojlanishi ortidan “olam manzarasi” fenomeni va uning inson ongidagi in’ikosi masalasi dunyo tilshunoslarini birdek o‘ziga jalb eta boshladi. Olam manzarasi uning barcha tarkibiy qismlarining birligi ma’nosida voqelik haqidagi tasavvurlarni umumlashtiradigan tizim sifatida turli yo‘nalish va jabhalarga tatbiq qilina boshladi. Shu tariqa, olamning lisoniy manzarasi, olamning ilmiy manzarasi, olamning milliy lisoniy manzarasi, olamning badiiy lisoniy manzarasi kabi tushunchalar paydo bo‘ldi.

Olam manzarasi atamasi birinchi marta XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nemis fizik olimi G.Gers tomonidan qo‘llangan bo‘lib, keyinroq kimyo, biologiya, texnika va boshqa sohalarda ham ishlatila boshlandi. L.Vitgenshteyn atamani falsafiy va mantiqiy nuqtayi nazardan ijtimoiy-gumanitar sohalarga tatbiq etgan.

Tilshunoslikda nemis olimi Vilgelm fon Gumboldt “tillarning farqlanishi faqat tovush va belgilarning farqlanishidagina emas, til tashuvchilarining olamni anglashiga ham bog‘liqdir”⁶ degan g‘oyasi bilan olamning lisoniy manzarasi tushunchasiga asos solgan bo‘lsa, Y.L.Vaysgerber har bir xalqning ona tilida

⁶ Гумбольдт фон В. О различии строения человеческих языков и его влияния на духовное развитие человечества / В. фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. – М., 1984. – С. 68-69.

ma'lum bir dunyoqarash mavjudligi haqida fikr yuritib, olamning milliy manzarasi tushunchasiga yo'l ochadi⁷.

O'zbek tilshunosligida olam lisoniy va konseptual manzarasida til birliklarining ilmiy-amaliy tadqiqini o'rganishga qiziqish ortib bormoqda. N.Mahmudov, A.Nurmonov, Sh.Safarov, E.Mamatov, A.Sobirov, J.Eltazarov, D.Xudayberganova, M.Ergasheva, M.Xoshimxo'jayeva, Sh.Maxmaraimova, D.Baxronova, M.R.Galiyeva, M.Xalimova, Z.Baynazarov, Z.Akbarovalarning ishlarida OLMning ilmiy-nazariy tushunchalari tizimlashtirildi va rivojlantirildi⁸.

A.Nurmonovning "Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasi (OLM) ga munosabati" maqolasida tildagi paradigmatic munosabatlarning tabiati batafsil yoritilib, paradigmatic munosabat muayyan belgi asosida xotirada bog'lanib turuvchi xilma-xil munosabatlarni o'z ichiga olishi va bu munosabatni chuqur o'rganish til egalarining xotirasida muhrlangan OLM ni to'g'ri yoritishda katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, olim o'z maqolasida paradigma ichidagi kichik paradigmalar xususida ham fikr yuritadi⁹. Tadqiqotimizda ana shu metodologik fikrlarga tayangan holda, tarixiy romanlar leksikasining paradigmatic munosabatlarini yoritib berishga harakat qildik.

Birinchi faslda nazarda tutilgan masala yuzasidan Z.A.Akbarovanning "Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kognitiv o'ziga xoslik" mavzusidagi doktorlik (DSc) ishi¹⁰, D.K.Baxronovanning "O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi" mavzusidagi doktorlik (DSc) ishi¹¹ da yoritilgan OLMning nazariy masalalari va tasniflanishiga munosabat bildirildi. Shuningdek, S.N.Chernikovanning "Национальная специфика фразеологической картины

⁷ Вайсгербер Л. Родной язык и формирование духа / Пер. с нем., вступ. ст. и коммент. О.А. Радченко. Изд. 2-е, испр. и доп. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 107-108.

⁸ Mahmudov N. So'z sandiqchasi. O'zbek tilining izohli lug'atchasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 2016. – 216 b.; Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. – Toshkent: Akademnashr, 2010; Nurmonov A. Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasi (OLM) ga munosabati // ADU. Ilmiiy xabarнома. 2009. – № 1. – B. 54–61; Safarov Sh. Pragmatik lingvistik. – Toshkent: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008. – 318 б.; E.Mamatov. Zamonaviy lingvistika. – Toshkent: Noshir. 2019. – 163 b. [https://jdrp.uz/wp-content/uploads/\(Murojaat_sanasi: 20.12.2024\);](https://jdrp.uz/wp-content/uploads/(Murojaat_sanasi: 20.12.2024);) Sobirov A. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавийт, 2004. – 160 б.; Eltazarov J. Markaziy Osiyo mintaqasidagi til vaziyati / Nutq madaniyati va o'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari mavzusidagi ilmiy-amaliy konf. mater. – Andijon, 2015. – B. 142–143; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.; Эргашева М. Оламнинг лисоний манзараси ва семантик майдонларга бўлиниши // Молодой учёный. – № 3.1 (107.1), Февраль, 2016. – С. 59–62; Xoshimxo'jayeva M. Olamning lisoniy tasvirida fitonimlar (ingliz, rus va o'zbek tillari misolida): Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 56 b.; Maxmaraimova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent. Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijogiy uyi, 2017. – B. 111. Baxronova D.K. O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent, 2022. – B. 62–67; Galiyeva M.R. Dunyoning lisoniy tasvirida diniy-mifologik tafakkurning aks etishi: Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2019. – 78 b.; Xalimova M. Olam milliy lisoniy manzarasi tasvirida til va madaniyat mushtarakligi // Academic research in educational sciences volume 2 | issue 4 |. 2021. – P. 888–892; Baynazarov Z. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida ifodalangan olamning lisoniy manzarasi: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 44 b.; Akbarova Z. Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kognitiv o'ziga xoslik. Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2021. – 76 b.

⁹ Nurmonov A. Paradigma va uning olamning lisoniy manzarasi (OLM) ga munosabati // ADU. Ilmiiy xabarнома. 2009. – № 1. – B. 54–61.

¹⁰ Akbarova Z. Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kognitiv o'ziga xoslik: Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Farg'ona, 2021. – 76 b.

¹¹ Baxronova D.K. O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi. – Toshkent, 2022. – B. 10.

мира”¹², O.G.Xabarovaning “Оценочные фразеологизмы, восходящие к образам животного и растительного мира”¹³ nomzodlik ishlari hamda V.V.Shkatovanning “Фразеологическая картина мира как объект лингвистического изучения”¹⁴, I.E.Turdiyevaning “Olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasvir”¹⁵ kabi qator tadqiqotlarda iboralarning olamning tasviriy manzarasini yaratishdagi oʻrni va ahamiyati oʻrganilganligi bilan ahamiyatlidir. Demak, olam manzarasining rang-barang va keng koʻlamli tushunchalari insonning olamni anglashi, milliy ong va milliy til, tafakkur va til munosabatlari, tilning milliy-madaniy xususiyatlari kabi qator masalalarni qamrab oladi. Shu maʼnoda, tarixiy romanlar diskursining lisoniy tadqiqi tasvirlanayotgan davr ruhi, turmush tarzi, milliy lisoniy manzarasi haqida toʻliq tasavvurga ega boʻlish bilan birga til birliklarini tizimlashtirish imkonini beradi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Tilshunoslikda olamning badiiy manzarasi va badiiy diskurs tushunchalari” masalasiga qaratilgan. Olamning badiiy manzarasi muammosini koʻtarish ijodkorlik jarayonlari va natijalarini koʻrib chiqishga, asarlarni idrok etishni oʻrganishga fanlararo yondashuvning yangi bosqichi boʻlib, insonning atrofdagi voqelikni oʻzlashtirishdagi eng murakkab narsalarni tushunish uchun muhim metodologik va uslubiy istiqbollarni ochadi. Badiiy matn – olamning badiiy manzarasini til vositasida amalga oshirish hisoblanar ekan, tadqiqot obyektimiz tarixiy mavzudagi romanlar boʻlganligi sababli, unda aks ettirilgan aniqlash uchun lingvistik tahlil usullarini qoʻllash mumkin koʻrinadi. “Olamning badiiy manzarasi” atamasi B.S.Meylax tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan boʻlib, olim bu atamaning mohiyatini “sanʼatning barcha turlari tomonidan qayta tiklangan maʼlum bir makon-vaqt diapazonidagi oʻziga xos voqelikning sintetik keng tasvirli (panoramik) manzarasi”¹⁶ deb tushunadi.

Badiiy asarning til xususiyatlari olam badiiy manzarasining lingvistik tadqiqida ham, odatdagi lingvopoetik tadqiq usulida ham umumfilologik aspektda koʻrib chiqilar ekan, “ular oʻrtasidagi farq nimada?” degan savol tugʻiladi. Maʼlumki, olam manzarasi tushunchasi koʻp oʻlchovli va koʻp qirrali kategoriya boʻlib, milliy va madaniy xususiyatlar bilan belgilanadigan qiymat dominantlarini aniqlash imkonini berishi bilan qimmatlidir. Demak, odatdagi lingvopoetik tahlil metodologiyasiga nisbatan chuqurroq yondashuvni talab qilishi nuqtayi nazaridan, umumfilologik yoʻnalish (V.Vinogradov taʼbiri) bilan birga falsafiy-madaniy mezon va tamoyillarga ham tayanadi.

Rus tilshunosligida S.B.Ayupovanning “Olamning badiiy manzarasida zamon va makon kategoriyasi (I.S.Turgenevning nasriy asarlari misolida)” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi olamning badiiy manzarasi doirasida qilingan ahamiyatga

¹² Черникова С.Н. Национальная специфика фразеологической картины мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2016. – 24 с.

¹³ Хабарова О.Г. Оценочные фразеологизмы, восходящие к образам животного и растительного мира: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2004. – 32 с.

¹⁴ Шкатова В.В. Фразеологическая картина мира как объект лингвистического изучения // Вестник ЛГУ им. А.С.Пушкина. – №1, том 7. 2012. – С. 208–215.

¹⁵ Turdiyeva I.E. Olamning lisoniy manzarasi va frazeologik tasvir // Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Support Center. 2022. – P. 311–313.

¹⁶ Мейлах Б.С. Философия искусства и художественная картина мира // Вопросы философии. – 1983. – №7. – С. 116–125.

molik ishlardan biridir. Avvalo, olimlar olamning oddiy lisoniy manzarasi bilan badiiy manzarasi o'rtasidagi farqlarni belgilar ekan, birinchi navbatda, yozuvchining badiiy tafakkuri va tildan foydalanish mahoratiga bog'liq bo'lib, tanlangan voqelikni o'quvchi ongida xuddi tabiiy olam manzarasidek tasavvur uyg'ota olishi bilan xarakterlanishini qayd etadi.¹⁷

L.A.Erofeeva "olamning poetik manzarasi" atamasini tor ma'noda lirik asarlarga nisbatan qo'llagan bo'lsa¹⁸, E.A.Tirishkina¹⁹ atamaning keng ma'nosini nazarda tutgan holda, "olamning poetik manzarasi" va "olamning badiiy manzarasi" atamalarini sinonim tarzda qo'llaydi. Til birliklarining kontekst doirasida harakatlanishi esa diskursiv jarayon hisoblanadi.

Diskurs (fransuzcha discours, inglizcha discourse < = lotincha discursus "oldinga va orqaga yugurish; aylanma harakat"//fransuzcha, inglizcha – "suhbat, muloqot) nutq, til faoliyati jarayoni; gapirish usuli²⁰. Zamonaviy fanda diskurs atamasining turlicha talqinlariga L.V.Surikova²¹, V.V.Maroshi²², N.A.Bojenkova²³, N.N.Mironova²⁴ larning qarashlari asosida fikr-mulohaza bildirildi. Badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari, olamni badiiy idrok etish tamoyillari uni boshqa diskursiv doiralardan ajratib turuvchi belgilari sifatida namoyon bo'lishi nuqtayi nazaridan "badiiy diskurs" atamasi keng qo'llanila boshlandi. Tadqiqotimiz obyektini aniqlashtirishda ana shu konseptual strukturaning tarkibiy qismi o'laroq "tarixiy romanlar diskursi" deb belgilab oldik. Tarixiy romanlar diskursida turli paradigmalar hosil qilgan tarixiy, arxaik so'z, iboralar biri ikkinchisini ham ma'no, ham shakl jihatdan to'ldirib, izohlab davrning lisoniy manzarasini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Bobning uchinchi fasli "Tarixiy romanlar diskursida eskirgan so'zlarning ahamiyati"ni o'rganishga qaratilgan. Tarixiy-badiiy matn muallifning retrospektiv ongi prizmasi orqali etnik-madaniy tizimni ifodalash vositasiga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy asarlar diskursida so'zlarning kognitiv-semasiologik o'zgarishlarga uchrashi xarakterli xususiyat hisoblanadi.

E.S.Kubryakovaning fikriga ko'ra, tarixiy romanda o'sha davrga xos milliy-madaniy qadriyatlar, dunyoqarash va xulq-atvor belgilari har bir personaj nutqida ma'lum bir davrning lisoniy shaxsi sifatida xarakter kasb etishi talab etiladi. Bunday belgilar ularning gap-so'zlarida, xatti-harakatlarida, tashqi ko'rinishlarida, ichki holatlarida, tasvirlangan tarixiy voqealarga, eskirgan obyektlar va hodisalarga

¹⁷ Аюпова С.Б. Категории пространства и времени в языковой художественной картине мира (на материале художественной прозы И.С.Тургенева): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Уфа, 2012. – С. 50.

¹⁸ Ерофеева Л.А. Метафорические репрезентации доминантных концептов в поэтической картине мира Р.М.Рильке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 2007. – С. 200.

¹⁹ Тырышкина Е.А. Ассоциативное поле как элемент поэтической картины мира В. Набокова: Дисс. ... канд. филол. наук. – Барнаул, 2002. – С. 191.

²⁰ Михалёва О.Л. Дискурс как объект исследования // Лекции по основам теории дискурса // <https://studfile.net/preview>. (Murojaat sanasi: 22.05.2024)

²¹ ПуриковаЛ.В. Проблемы когнитивного анализа дискурса в современной лингвистике // Вестник ВГУ. Серия 1, Гуманитарные науки. 2001. № 2. – С.128–157.

²² Мароши В. В. Что есть дискурс? // Дискурс. 1996. № 2. – С. 98–112.

²³ Боженкова Н.А., Атанова Д.В. Общая теория дискурса: методические указания для подготовки преподавателей к проведению практических занятий / Юго-Зап. гос. ун-т; сост.: – Курск, 2016. – 106 с.

²⁴ Миронова Н.Н. Речь, погружённая в жизнь // Лекции по основам теории дискурса // <https://studfile.net/preview>. (Murojaat sanasi: 18.08.2024)

baholovchi munosabatlariida namoyon bo‘ladi²⁵. Bu mezon tarixiy roman matnidagi eskirgan so‘zlar dinamikasini badiiy-tarixiy olam manzarasiga xos zamon kategoriyasi kognitiv-diskursiv mexanizmlari nuqtayi nazaridan idrok etishga yordam beradi. Bu jarayon funksional leksikologiyaning yangi predmeti bo‘lib, A.T.Gigolayeva buni kognitiv-diaxron yondashuv deb nomlaydi²⁶. Eskirgan so‘zlarning paradigmatic munosabatlari diskursiv vaziyat taqozosi bilan yuzaga kelgan polisemantik, sinonimik, omonimik va antonimik munosabatlar bilan boyitiladi yoki o‘zgaradi. Masalan, Muhammad Ali asarlaridagi tarixiy personajlardan biri bo‘lgan Davlatshoh uyg‘ur nomiga qo‘shib aytiladigan baxshi so‘zining tahlili orqali Amir Temur saroyida yozuv-chizuvlarni, asosan, o‘zbek kotiblari olib borishganligi, biroq kotib o‘rnida “baxshi” so‘zini ishlatish mo‘g‘ul xonlaridan an‘ana bo‘lib qolgani dalillangan.

“Sarbadorlar” va tetralogiya sifatida nashr etilgan “Ulug‘ saltanat” asarlarida olamning lisoniy manzarasini yaratishda yozuvchining uslubiy o‘ziga xosligi muallif nutqida quyidagi til birliklaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi:

1. Sinonimik qatordagi nisbatan qadimiy sof turkiy arxaik so‘zni ishlatish: Amir Husayn bu bitikni o‘zidan qo‘shib-chatib shishirib, xonga yetkazdi. (U.s.1)

2. O‘zbek tilining faol lug‘at tarkibiga o‘zlashmagan, lekin mumtoz adabiyot namunalarida qo‘llanadigan so‘zlar. Romandagi tag‘ayyur, mujda, naqba, tavajjuh, arzadosht kabi so‘zlar ana shunday assotsatsiya uyg‘otishga xizmat qiladi.

3. Arabcha, forsha izofalar: ilmi nujum, murtazoyi a‘zam, padari buzrukvor, ahli haram, xossayi sharifa, halloqi bezavol, poytaxti firdavsmonand, zoti bobarakot kabi izofalar moziy ruhini uyg‘otganligiga guvoh bo‘lamiz.

4. Sinonimik qatordagi so‘zlarning arabiy, forsiy variantlarini qo‘llash: urush, jang – muhoraba, savash; piyoda askar – sipohiy.

5. Qo‘shma fe‘llarning nisbatan eskirgan shakllarini qo‘llash ham ushbu maqsadga yo‘naltirilgan: urushmoq, jang qilmoq – savash qurmoq; xijolat bo‘lmoq – izo tortmoq.

6. Masofa birliklari va tushunchalarining tarixiy asar mazmuniga mos tarzda tarixiy shakllarda yoki zamonaviy so‘zlar yordamida birikmalar tuzgan holda berilishi: Idilning yoyilmasida, daryoning so‘l qirg‘og‘ida joylashgan xushmanzara bu shahar bilan Xazar dengizi orasida yigirma toshcha masofa bor edi. (U.s.2.)

7. Sanalarning hijriy shaklda yoki milodiy hisob bilan, oylar esa tasvirlanayotgan davr an‘anasiga ko‘ra islomiy taqvim asosida berilishi: Hijriy 793-yil robbiul avval oxiri payshanba kunida Amir Temur qo‘shini Sariq O‘zan mavzesiga kirib bordi. (U.s.2.)

Ikkinchi bob “**Muhammad Ali tarixiy romanlaridagi eskirgan so‘zlarning paradigmatic tadqiqi**” deb nomlangan. Bobning birinchi faslida “Eskirgan so‘zlarning uyadoshlik munosabati” yoritilgan.

Tarixiy-badiiy diskursda eskirgan so‘zlarning stilistik ahamiyati boshqa til birliklariga nisbatan birinchi planga chiqadi. “Ma‘lumki, eskirgan so‘zlar ikki xil

²⁵ Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 305-306.

²⁶ Гиголаева А.Т. Когнитивно-семасиологическая архаизация слова в художественно-историческом дискурсе // Актуальные проблемы филологии и педагогической лингвистики, 2018, № 1(29). – С. 113–120.

bo'ladi: tarixiy so'zlar (istorizmlar) va arxaizmlar. N.M.Shanskiy birinchilardan bo'lib eskirgan so'zlar, jumladan, arxaizm va istorizmlar masalasini o'rgangan hamda "istorizm" va "arxaizm" tushunchalarini ajratib turuvchi tipologiyani ishlab chiqqan²⁷.

Eskirgan so'zlar qo'llanish xususiyatiga ko'ra farqlanadi. Istorizmlar neytral so'zlar sifatida ham, o'zlari belgilagan voqelikni nomlash uchun (masalan, tarixiy asarlarda) uslubiy vosita sifatida ham qo'llaniladi. Arxaizmlar faqat ma'lum stilistik maqsadlarda, ya'ni tarixiy roman, hikoya, qissalarda haqiqiy tarixiy muhitni va qahramonlar nutqini qayta tiklash uchun qo'llaniladi²⁸.

Nazariy fikrlarga asoslangan holda mazkur romanlardagi uyadoshlik munosabati asosida semantik maydonga birlasha oladigan til birliklarini mavzuiy guruhlariga bo'lib o'rganildi. "Sarbadorlar" va "Ulug' saltanat" tarixiy romanlarida qo'llangan eskirgan so'zlarni quyidagicha guruhladik:

1. Onomastik nomlar:

a) tarixiy va to'qima antroponimlar. Amir Temur, Umarshayx Mirzo, Jahongir Mirzo, Amir Husayn, O'rusxon, To'xtamishxon, Saroymulxonim, Xonzodabegim kabi o'nlab real shaxslar nomlari, shuningdek, Axiy Jabbor, Abbas bahodir, Mubashshir bahodir kabi tarixiy bo'lmagan antroponimlar ham ko'p qo'llangan.

b) toponimlar. Qo'stantiya, Ushrushona, Gurganj, Damashq, Daragez, Derzab, Andxoy, Dizaq, Xevaqa, Shibirg'on, Omul, Xuttalon, Darband kabi.

s) gidronimlar: Enchio'g'iz, Yaksart, So'g'd, Juzjon, Xuzor, Xazar, Yoyiq, Jayxun, Xashka suyi, Ko'kcha dengiz, Xo'jand suyi, Omuya.

2. Shaxs nomlari: a) shaxslarning saroydagi yoki jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi bilan bog'liq atamalar: 1) erkak jinsiga oid atamalar: Sohobqiron, podsho, xon, xoqon; 2) ayol jinsiga oid atamalar: xotun, oqa, xonim; b) iqtisodiy nochor hamda huquqsiz (huquqi cheklangan quyi tabaqa vakillari) kishilar nomlari; , miskin, gado, chorakor; d) kasb-hunar egalari atamalari; juvozchi, sahhof, naddof h) ijtimoiy oqim va guruhga mansub kishilar nomlari: sarbador, qalandar.

3. O'rin-joy nomlari:

a) mamlakat yoki shaharning ma'lum qismi ma'nosidagi nomlar: o'rdugoh, qasaba, muzofot, kent, domon, dog'goh, tumonot, xazorijot kabi;

b) saroy hayoti bilan bog'liq o'rin-joy atamalari: saroparda, borgoh, ko'rinishxona, shabiston, haram, humoyun o'rdu, shohchodir kabi;

c) maishiy xizmat xonalari: aruxona;

d) saqlash joylari: sardoba, koriz, sayisxona, tabla, zarrodxona, jibaxona kabi;

4. Narsa-buyumlarga oid nomlar: a) yoritish asboblari nomlari: toshchiroq; b) oshxona buyumlari nomlari: dekcha, chapiya; d) dam olish jihozlari nomi: chahorbolish; e) transport vositalari nomlari: aroba, maofa; g) imoratsozlik bilan bog'liq nomlar: tarx, guldasta; h) chodir jihozi nomi: changg'aroq.

5. Harbiy tushunchalar bilan bog'liq so'zlar: a) harbiy jarayon va harakatlar bilan bog'liq nomlar: muhoraba, chopqun; b) harbiy qism nomlari: barong'or,

²⁷ Шанский Н. М. Лексикология современного русского языка – М.: Просвещение, 1972. – 368 с.

²⁸ <https://old.bigenc.ru/> (Murojaat sanasi: 20.10.2024)

javongʻor; d) harbiy oʻrin-joy atamaları: zarrodxona, pusugʻ; e) harbiy kiyimlar nomlari: bagtar, bagʻaltoq; f) harbiy qurol-aslaha nomlari: sadoq, tarkash.

6. Kiyim-kechakka oid soʻz va atamalar: a) bosh kiyimlar nomlari: kuloh, taqiya; b) oyoq kiyimlar (poyafzal) nomlari: sarmuza; d) ayollar kiyimlari nomlari: qabo, iksun qabo; e) erkaklar kiyimlari nomlari: qantara, hirqa; f) maxsus kiyimlar nomlari: rido, dastor, foʻta dastor, mandil.

7. Oy va kun nomlarini bildiruvchi atamalar: shavvol, javzo, qantar, jadiy.

8. Pul birligiga oid atamalar: kepaki (kepakiy), aqcha, naqdina, jayba, ukalko.

9. Soliq tizimiga oid atamalar: oʻlpon, xiroj, juzʻya, yarmoq, suyurgʻol.

10. Kasallikka oid atamalar: xilt, nazla, sakta, molixuliyo, maraz, malalat.

11. Yozuv nomlari: koʻfiy, suls.

12. Ish qogʻozlari va hujjatlar nomlari: muchalko, aqd, oyin.

Ikkinchi fasl “Tarixiy kolorit beruvchi til birliklarining soʻz turkumlari doirasidagi tasnifi” deb nomlangan. Muhammad Ali turkum romanlarining lisoniy jihatlarini oʻrganishda adibning asar tili ustida qunt bilan ish olib borganini kuzatdik. “Sarbadorlar” va “Ulugʻ saltanat” turkum tarixiy romanlari diskursida eskirgan soʻzlarning aksariyat qismi ot va sifat, qisman son soʻz turkumiga aloqador oʻlchov birliklarini ifodalovchi soʻzlar tashkil qilishi, olmosh, ravish va feʻl hamda yordamchi soʻz turkumlariga oid soʻzlar nisbatan kam qoʻllanilganligi kuzatildi. Muhammad Alining tarixiy romanlarida faol qoʻllangan eskirgan til birliklarini soʻz turkumlari boʻyicha quyidagicha tasnifladik.

I. Ot – soʻz turkumi: 1. Shaxs otlari: diniy markerlangan shaxs otlari: risolatpanoh, sayyid; qarindoshlik munosabatini ifodalovchi shaxs otlari: tagʻoyi, zavja; koʻplik maʼnosidagi shaxs nomlari: raoyo, baroyo.

2. Narsa-buyum otlari; oʻsimlik va gul nomlari bilan bogʻliq atamalar (lolai noʻmon, qoʻgʻagul, choʻpazak, indov, chinak, shaqoyiq, aqruz, shabboʻy, haram kabi); hayvonlar, qushlar va hasharotlar nomlari (xuk, ilvasin, buqalamun, argʻumoq kabi); tabiat hodisalari va jismlarga oid nomlar (xulo, muqarna, dolgʻashi, magʻal, gilvoy, oyqin, shovush kabi).

3. Mavhum otlar: 1) his-tuygʻu va tushunchalarga oid mavhum otlar: sin, unsu ulfat, xeshlik, robita, gʻayb, taomil, qavoidu rusum, etok, rutba kabi; 2) faoliyat-jarayon otlari: bosqin, shabixun, gʻorat, unnov, itmom kabi.

II. Sifat – soʻz turkumi:

- xil-xususiyatni bildiruvchi sifatlar: badniyat, xudkomona, durri nosufta, madadkor, kalapatra, kushtigir, kajbahs; munaqqash (naqshlangan), qablal bilod, fagʻfuriy, gardunqudrat, yalakat, humoyunnishon, oʻtrik, murassaʻ, obdor, pisqin, xirpa, sultoniy, shavqiyob, qosir kabi;

- rang-tus bildiruvchi sifatlar: argʻuvoniy, oloyi kabi;

- shakl-shamoyil, hajm bildiruvchi sifatlar: fuzun, koʻtoh, dongʻil, poydor, biyla, chaldevor, taxtiravon, kulohnamo, rasida;

- maza-taʼm bildiruvchi soʻzlar: nuqli;

- holat bildiruvchi sifatlar: uryon, faqir, yoʻqsul, shabgir, zaxmdor, mustahiq, kamgak, nigun, sarnigun, zupta, muvahhid (muvahhad) kabi.

III. Son – soʻz turkumi:

- miqdor maʼnosini ifodalovchi soʻzlar: tuman, xazora, sada kabi;

- og'irlik o'lchovini ifodalovchi so'zlar: botmon, xarvor, chaksa kabi;
- uzunlik o'lchovini ifodalovchi so'zlar: farsax, tanob, gaz, jarib, yig'och;
- vaqt o'lchovini ifodalovchi so'zlar: qarn;
- hisob so'zlari (numerativlar): nufus, qatim.

IV. Olmosh – so'z turkumi

Olmosh turkumiga oid so'zlarni nisbatan nofaol til birliklari sifatida belgiladik, alohida xususiyatlar kuzatilmadi: nechuk, shul, chikora, ushmundoq.

V. Fe'l – so'z turkumi:

Harakat fe'llari: so'ylamoq, tahqiq etmoq, no'sh etmoq kabi.

Holat fe'llari: tavaqquf, mutafarriq o'lmoq (parokanda bo'lmoq kabi).

Badiiy-tarixiy diskurs nuqtayi nazaridan tarixiylik tamoyili asosida fe'l so'zshakllarining tarixiy variantlari faol qo'llangan. *Bas, to'qqizini tiyib, birini aytg'oymen, o'shal so'zimda turg'oymen... (S.)* Yozuvchi personajlar nutqini individuallashtirish maqsadida fe'lning dialektga xos morfologik shakllaridan uslubiy vosita sifatida foydalangan: - *Bilam, bilam! – bidirladi bo'g'irsoq. – Hozir opkelam!... Hozir!... Bo'g'irsoq chaqqon bozorga yugurdi. (U.s. 3)*

VI. Ravish – so'z turkumi:

Holat ravishlari: mustag'riq, qatron, omoda, ifsho, talaf, musaxxar.

Payt ravishlari: ba'd, ba'daz, yang'itda, so'g'in, emdi, burnog'i.

VII. Yordamchi so'z turkumlari: 1) ko'makchilar: sori, birlan; 2) bog'lovchilar: magaramkim, vale; 3) yuklama: baayni; 4) izofali birikmalar:

a) **forsiy izofa:** kulbai vayrona, mahdi ulyo, Bilqisi sug'ro, xosi haram;

b) **arabiy izofa:** qomus ul-a'lom, masharal musulimin shayxul mashoyix.

Arabiy va forsiy iboralarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) hurmat, baho munosabati bilan bog'liq izofiy birliklar: Sohibqironi muazzam, durri yakdona, durri nosufta, durri yakto, nuri diyda, saromadi zamona, arzandayi samo, mahdi ulyo, Bilqisi sug'ro;

b) martaba, lavozim bilan bog'liq izofiy birliklar: hazrati oliy, arkoni davlat, hazrati volo, sadri a'zam, vaziri a'zam, murtazoyi a'zam, amiri mustavfiy, sohib-ul kirom, amir-ul umaro, nur-ul millat;

c) ijtimoiy tuzilmaning darajasi bilan bog'liq izofiy birliklar: devoni oliy, devoni amlok, devoni mushrif;

d) qarindoshlik munosabati bilan bog'liq izofiy birliklar: volidayi muhtarama, farzandi arjumand, padari buzrukvor;

e) diniy tushunchalar bilan bog'liq izofiy birliklar: halloqi bezavol, sultoni islom, hokimi mutlaq, bandayi ojiz, nahyi munkar, zoti bobarakot;

f) ilmiy tushunchalar bilan bog'liq izofalar: qomus-ul a'lom, ilmi nujum;

g) maishiy mavzu bilan bog'liq izofiy birliklar: kufroni ne'mat;

h) nabotot olami bilan bog'liq izofiy birliklar: lolayi no'mon, lolayi dutabaqa, dardi kokiliy, guli shashmog'a, xatmi xitoyi;

i) hujjatlar bilan bog'liq izofiy birliklar: farmoni oliy;

j) o'rin-joy bilan bog'liq izofiy birliklar: xosi haram, umm-ul madoyin.

Asarlarda uchragan hamma izofalar tasniflanmagan, chunki izofalar miqdoriy jihatdan ko'p bo'lmasa-da, ularning mavzu doirasi rang-barang ekandigi kuzatildi. Tarixiy romanlar diskursida izofali birikmalar, asosan, xos kishilar nutqida

qo'llanib, nutqqa tantanavorlik, ulug'vorlik bag'ishlashga, o'zidan yuqori tabaqa vakillariga nisbatan hurmat yoki xushomad ma'nolarini ifodalashga xizmat qiladi.

VIII. Alohida olinadigan so'zlar: 1) modal so'zlar: valloh (vallohi), bil'aks, filhaq, soniyan, alqissa, alalxusus, alal oqibat, ittifoqo, g'olibo; 2) undov so'zlar: vovaylo, ahsanta, vohasrato, vodarig'o, ajabki, ur-xo.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli "Tarixiy so'zlarning leksik-semantik munosabatlari" deb nomlangan va quyidagicha tadqiq qilingan:

Sinonimik munosabatlar. Muhammad Ali romanlarida eskirgan so'zlarning bir qancha sinonimik qatorlari adibning temuriylar davri tilini chuqur o'rganganligi va o'sha davr leksikasidan unumli foydalanganligini ko'rsatadi. Xususan, quyidagi sinonimik qatorlar aniqlandi:

- joriya, ojiza, cho'ri, kanizak, zaifa, asira;
- g'anim, yog'iy;
- ashob, muhib, uns, unsu ulfat;
- shavhar, zavji;
- raoyo, baroyo, raiyat, ulus, xosu om, runudu avbosh, avomunnos, avom;
- muhoriba (muhoraba), chopqun, savash, yasoq, yasol, nakomishiy, yosomishiy, savq-ul jaysh, ta'biyat-ul jaysh, harb, g'ul.

Har bir sinonim so'zning o'ziga xos xususiyati uning badiiy nutqda ishlatilishida ochiq ko'rinadi. Chunki bir sinonimik qatorni tashkil qiluvchi uyada umumiylik bilan juz'iylik birlashadi. Umumiylik ularning hammasi uchun tushuncha birligi bo'lsa, juz'iylik tushunchaning ma'lum bir tomonini ajratib ko'rsatishdir. Sinonimlardagi tasviriylik ham xuddi ana shundadir²⁹.

Antonimik munosabatlari: sud (foyda) – ziyon, yog'iy-uns-u ulfat, obod – vayrona. *Katta malika bu ko'zlarda loqaydlik, so'nib bitgan havas, chorasizlikdan obod vayrona qalbni ko'rdi. (U.s.2.)*

Lisoniy birliklarning pog'onali (ierarxik) munosabati ikki xil: partonimik va giponimik. Bular bir-biriga yaqin tushunchalarni ifodalagani uchun ularni qiyoslab, farqlab o'rganish zarurati seziladi va ilmiy manbalarda ham shunday yondashuv kuzatiladi. Agar giperonim umumiylik, tushunchasini ifodalasa, butun tushunchasini ifodalovchi so'z yaxlitlik ma'nosini anglatadi. R.Safarova mana shu farqdan kelib chiqqan holda partonimik va giponimik qatorlarni o'zaro qiyoslaydi: 1. Nasr – roman, qissa, hikoya, ocherk, latifa. 2. Kitob – muqova, varaq, sahifa³⁰.

Partonimik munosabatni tadqiqotchi A.Sobirov *xolo-meronimik munosabat* atamasi bilan ifodalaydi hamda til real borliqning o'ziga xos in'ikosi ekanligini hisobga olgan holda, uning ikki turini ajratib ko'rsatadi³¹.

Romanlarida butun-bo'lak munosabatining quyidagi ma'no turlari kuzatildi: a) inson tana a'zolari: domon, diyda, ilig, qursog', irin, andom; b) hayvon tana a'zolari: parqin, qoptol, ustixon; v) kiyim qismlari: qurchuq, baxya, o'tog'a.

Gipo-giperonimik munosabatlar. Giponim (yunon. ὑπό – ostida, pastda + ὄνομα – nom) boshqa, umumiyroq tushunchaga nisbatan muayyan mohiyatni

²⁹ Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси: Педагогика институтларининг филология факультети студентлари учун ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 32.

³⁰ Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б. 22.

³¹ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини система сифагида тадқиқ этиш, Филол. фан. доктори дисс. ... автореф. – Тошкент, 2005. – Б. 143.

ifodalovchi tushuncha. Bunday pog'onali munosabatni yozuvchi romanlaridagi tarixiy leksemalar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, ot so'z turkumiga mansub bo'lgan yuzlab leksemalar qirqqa yaqin semalar bilan giponimik (tur) va giperonimik (jins) aloqaga kirishadi. Xotun, ojiza, oqa, xonim, xonzoda, mankuha, malak, bika, begim, joriya, cho'ri, kanizak leksemalari ayol ma'nosini ifodalovchi giperonim (jins) bilan aloqaga kirishadi, o'z navbatida, odam, shaxs ma'nosi bilan ham munosabatga kirishadi. Bunday pog'onali darajalanishni shaxs otlarining o'ttizdan ortiq turida ko'rish mumkinligi aniqlandi.

Graduonimik lug'aviy qatorni ajratishda ma'noviy hamda so'zlararo paradigmatic munosabat omillariga tayaniladi. Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma'lum bir belgining oz-ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud³². Muhammad Ali romanlarida graduonimik qatorning quyidagi turlari kuzatildi:

- a) hududning katta-kichiklik belgisi asosida: qasaba, muzofot, kent, domon;
- b) hujjatning muhim/nomuhimlik, ijtimoiy mavqei darajasi asosida: payg'om, bitik, inoyatnoma, fathnoma;
- d) pulning miqdoriy belgisiga ko'ra: kepaki, paysa, naqdina, misqol, jayba;
- d) uy-joy binolarining hajmiga ko'ra: dolon, kulba, shomiyona, hisor;
- e) soliqlarning ijtimoiy mohiyatiga ko'ra: o'lpon, zakot, xiroj, juz'ya, yarmoq, suyurg'ol, moli omon;
- f) ijtimoiy tuzilmaning darajasiga ko'ra: devon, devoni oliy;
- g) tarixiy ulov vositasining imkoniyat darajasiga ko'ra: maofa, aroba;
- h) ijtimoiy-harbiy unvon darajasiga ko'ra: o'nboshi, yuzboshi, mingboshi.
- i) vaziyat, holatning darajasiga ko'ra: shivir-shivir - g'ala-g'ovur.

Dissertatsiyaning uchinchi bobida "Muhammad Ali romanlarining diskursiv va lingvopoetik xususiyatlari" tadqiq qilingan bo'lib, birinchi faslda "Polisemantik so'zlar poetikasi" o'rganilgan. "Polisemiya, odatda, muayyan narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakat nomini boshqa narsa-predmet, belgi-xususiyat, harakatga ko'chirish usuli bilan voqelanadi"³³. M.Hakimovanning fikriga ko'ra, so'zlar yangi yaratilgan davrida bir ma'noli bo'ladi. Olamning o'zlashtirilishi va inson bilimining oshib borishi natijasida leksemaning ma'nolari ko'payib boraveradi³⁴.

Odatda, leksik ma'noning o'zgarishi deganda, metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik usullari orqali ma'no ko'chishi hodisasi nazarda tutiladi.

Metafora. Tilda eng faol qo'llanadigan va tilshunoslikda eng ko'p o'rganilgan, antik davrdan buyon tilshunos va adabiyotshunoslarni birdek qiziqtirib kelayotgan, ko'chimning eng sermahsul va yorqin semantik bo'yoqdorlik hosil qiladigan til hodisalaridan biri metafora hisoblanadi. "Nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir"³⁵. O'zbek lingvopoetikasida metaforaning 3 xil mazmuniy turi ajratiladi: 1) odatiy metaforalar; 2) jonli metaforalar; 3) sinestetik metaforalar. Muhammad Ali romanlari diskursida har

³² Sayfullayeva R va b.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – B. 107.

³³ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Birinchi kitob. – Toshkent, Mumtoz so'z, 2010.– B. 61.

³⁴ Хакимова М. Семасиология. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2008. – Б.49.

³⁵ Қўнғуров Р. ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 97.

uchala turga oid metaforalar kuzatildi: chandiq gaplar, ko‘zi o‘tkir (odatiy), oy yuzini yirtgan, Zuhro sochini yulgan (jonli), chirsillagan muammo (sinestetik). Ushbu faslda chandiq gaplar, qora sovuq, vaziyatni andavalashga turdi, palag‘da hayot metaforalari, to‘fon, chayon, ustun kabi so‘zlar yordamida hosil qilingan metaforalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan.

Tarixiy romanlarda muallif tomonida yaratilgan ehson qo‘li, hurmat oyog‘i, jasorat oyog‘i, mo‘g‘ul oyog‘i, farosat ko‘zi, adolat ko‘zi, zamona ko‘zi, ibrat ko‘zi kabi birliklar individual poetizmlar sifatida metafora usulida ko‘chim hosil qilgan va adibning so‘z qo‘llashga mohirona yondashuvining o‘ziga xosligini ta‘minlagan.

Metonimiya – grekcha metonymia so‘zidan olingan bo‘lib, boshqacha nom berish degan ma‘noni bildiradi³⁶. *Samarqand yo‘talsa, yo‘talamiz! Samarqand yo‘talsa, yo‘talamiz! Samarqand yur desa, yugurib ketamiz, o‘tir desa yotib olamiz! Taomil shunaqa! Taomil shunaqa! Ha! – kimgadir kesatib gapirdi Amir Kayxusrav. (U.s.2.) Turfa do‘konlar tong sahardan mo‘jaz eshiklarini ochib, xaridorlarni kutadi. (U.s.2) Ko‘hna Balx bunday yig‘inlarni ko‘p ko‘rgan. (U.s.1.)* Bunda do‘kon va Balx makonlariga mansub shaxslar nazarda tutilib, metonimik ko‘chim hosil bo‘lgan. An‘anaviy usulga ko‘ra, ko‘pincha, makon bildiruvchi biror so‘z metonimik ma‘no tashiganda, o‘sha joy ahli nazarda tutiladi. Masalan, *Samarqand, Ko‘hna Balx bunday yig‘inlarni ko‘p ko‘rgan* jumlasida “Balx aholisi”, “Balx xalqi” ma‘nosi anglashiladi. Lekin personaj nutqidan olingan *Samarqand yo‘talsa, yo‘talamiz!* jumlasida Samarqand ahli emas, “*Samarqand taxti egasi*” *Sohibqiron Amir Temur* nazarda tutilgan. Kesatib ma‘nosida esa alamzadalik, xasad ma‘nolari yashiringan. *Saroy-Berka bilan Sig‘noq o‘rtasida kishi bilmas raqobat tug‘ildi. (U.s.2.)* Mazkur gapdagi makon ma‘nosini ifodalovchi *Saroy-Berka* va *Sig‘noq* toponimlari metonimik ko‘chim asosida amirlar yoki xonliklar ma‘nosida kelgan.

Sinekdoxa – “(yun. *synecdoche* – birga nazarda tutmoq) bunday ko‘chirilish nomlanayotgan predmet yoki hodisalarning miqdor belgilariga tayanadi. Asarlarda sinekdoxa asosida ma‘no ko‘chirish usuli metafora va metonimiyaga nisbatan kam kuzatildi. *Biroq u 1357-yilda fitnachilar tomonidan o‘ldirildi, mamlakatda tag‘in ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan besaranjomliklar pallasi boshlandi. (U.s.2.)*

Vazifadoshlik. “Vazifadagi o‘xshashlik asosida ma‘no ko‘chirilishi (funktional ko‘chirish): tomir (anat.”qon tomiri” – bosh leksik ma‘no) – tomir (biol. “o‘simlik ma‘nosida suyuqlik va undagi erigan moddalar oqadigan to‘qima naychalar” – hosila ma‘no). Tomir leksemasining semantik tarkibidagi bu ikki ma‘no shu leksema bilan atalayotgan “qon tomirlari” va o‘simlik tanasidagi to‘qima naychalar” bajarayotgan vazifadagi o‘xshashlikka asoslangan: har ikkala holatda ham ular (tomir va naychalar) tirik organizm uchun xizmat qiladi”³⁷. *Daraxtning tana, po‘stloq, tomiri, shoxu barg va gulu mevasi bor, javonmardlik, futuvvat ham ana shundoq, unda ham tana bor, po‘stloq bor, ildiz bor, shox bor, meva bor... (U.s.3.)*

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “Til birliklarining lingvopoetik xususiyatlari” tadqiqiga qaratilgan, adibning tahlilga tortilgan tarixiy romanlarida badiiy tasvir va ifoda vositalaridan o‘ziga xos tarzda foydalanishida ijodkorning shoirona sa‘jiyasi

³⁶ Қўнғуров Р. ва бошқалар. Ко‘rsatilgan manba. – Б.101.

³⁷ Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 157.

qo‘l kelgan. M.Yo‘ldoshevning ta’kidlashicha, “Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi”³⁸. (*O‘rusxon*) – *Pandavaqilar! Og‘zidan oshini oldirganlar! Galvarlar! Senlarni so‘qimga tortish kerak!... (U.s.2) Dekcha haftada bir qaynaydi yo yo‘q... “To‘g‘ri” deganing shulmi, shilpiq, kalamush, ko‘rshapalak? (S.)* Jumlalardagi pandavaqi, galvars, shilpiq so‘zlari tabiatan salbiy ma‘no bo‘yoqdorligiga ega so‘zlar bo‘lsa, kalamush, ko‘rshapalak so‘zlari jonivorlarning neytral ma‘noli nomlari bo‘lib, o‘zbek til tashuvchilari milliy ongida metaforik usulda salbiy bo‘yoqdorlik ma‘nosiga ega bo‘ladi.

Muhammad Alining tarixiy romanlari diskursida **vulgar** (haqorat) so‘zlarning rishvaxo‘r, huqqai ganjina, gushna, qo‘sqi, esvos, to‘rsiqxon, xaltaqursoq, ta‘viya, taraqqos kabi eskirgan variantlari ham faol qo‘llangan.

Parazit so‘zlar, asosan, og‘zaki so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, notiqning o‘z nutqini kuzatib bormasligi, e‘tiborsizligi natijasida paydo bo‘ladi va bora-bora odatga aylanib qoladi. Lisoniy shaxslarning parazit so‘zlarni qo‘llash odatidan personaj nutqini individuallashtirish maqsadida tasviriy vosita sifatida foydalaniladi. *Amir Husayndan ehtiyot bo‘lmoq kerak. Tushundik, u yana makru hiylalar yo‘liga kiribdur... Amir Muso “tushundik” so‘zini bo‘lar-bo‘lmasga ishlata berar edi. G‘aflatda qolmaylik, deymen. (U.s.1.)*

Dialektizm (yunon. dialektos – sheva, lahja) – ma‘lum bir hududda yashovchi kishilar tiliga xos leksik birliklar, fonetik, morfologik, sintaktik xususiyatlar jami³⁹. Muhammad Alining tarixiy romanlarida ham dialektizmlardan foydalanilgan o‘rinlarda ifoda jozibadorligiga erishilganligi kuzatildi. Dialektologiya qonuniyatlariga ko‘ra, bir so‘z ma‘lum bir shevada boshqa ma‘noda, ikkinchi bir shevada esa boshqa ma‘noda qo‘llanishi mumkin. Yozuvchilar haqqoniy tasvir yo‘sinini yaratish maqsadida til birliklarining ana shunday variantlarini ham qo‘llaydilar. *Saropardaning so‘l tomonida o‘ltirgan Samarqand hokimi Sadr Sulaymon sog‘ tarafdagi Temurbekka nazar tashladi. (S.)*

Epitet (sifatlash) grekcha so‘z bo‘lib, izohlovchi degan ma‘noni anglatadi. Epitet poetik aniqlovchidir. U boshqa doimiy aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilishi, ko‘chma ma‘noda ishlatilishi bilan farq qiladi⁴⁰. Adib romanlarida hissiy bo‘yoqdorlik va ekspressivlik kuchaytirilgan o‘rinlarda epitetlardan unumli va samarali foydalanilgan. Xususan, zo‘riqqan karnaylar, chirsillagan muammo, olifta mo‘ylab okkazional epitetlari ifodaning ekspressiv ta‘sirchanligini ta‘minlagan.

Takror ma‘noni kuchaytirish, intensivlik va emotsionallik uchun xizmat qiladi. So‘zlovchi o‘z sezgilariga iboraning mos emasligini anglab, sifatni miqdor bilan to‘ldirishga harakat qiladi. bu takrorni yuzaga keltiradi. Takror emotsional nutqni xarakterlaydi⁴¹. *Menga o‘sha valad kerak edi. O‘sha valad!... Qani u?! Qani*

³⁸ Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2006. – В.32.

³⁹ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 91.

⁴⁰ Кўнғуров Р. ва бошқалар. Нутқ маданияти ва услубият асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 98.

⁴¹ Шомаксудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 232.

deyapmen? Qutlug' Bug'a o'g'limning alamini olar edim!... Puf-f! Yuragini tiriklay sug'urib olib qovurib yer edim-m!.. Yuragini!..(U.s.2) Matndagi til birliklari takrori personaj ruhiy holatini real tasvirlashga qaratilgan.

O'xshatish faol stilistik figuralardan biri sifatida fikrni obrazli, ta'sirchan ifodalashda qo'l keladi. *Baland bo'yli, shopmo'ylov bir yigit Abu Bakr Kalaviy oldida xuddi tol oldidagi terakday serrayib turardi. (S.)* Bunda bir o'rinda ikki o'xshatish yonma-yon kelgan, Abu Bakr Kalaviy tolga, yigit terakka o'xshatilgan.

Oksimoron yoki oksyumoron (yunon. oxymoron – zakiyona nodonlik) – uslubiy figura, mantiqan tamomila zid tushunchalardan hosil bo'lgan sintaktik birlik⁴². Muhammad Ali ham o'zbek tilidagi serqirra ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan mahoratli adib sifatida ko'pincha she'riy asarlarda kuzatiladigan oksyumoron badiiy ifoda vositasini ham muvaffaqiyatli qo'llay olgan. *Dunyo moli sho'r suv kabitur, ichgan saring tashnaliging ortadur... (S.)* Mazkur misolda ichmoq-tashnaligi ortmoq qarama-qarshi tushunchalarining o'zaro birikuvi oksyumoron hosil qilgan.

Dissertatsiyaning oxirgi fasli “Tarixiy romanlar diskursida iboralarning ifoda imkoniyatlari” deb nomlangan. Iboraning lingvopoetik imkoniyatlari cheksiz bo'lib, faol estetik-stilistik vositalardan biri sifatida fikrni obrazli tarzda ixcham va lo'nda ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Ishda bosh, oyoq, qo'l, ko'z, ich, qon, tish, til kabi inson tana a'zolari bilan bog'liq somatik iboralar tahlili berilgan.

– *Temurbek! Mendan o'tgan bo'lsa, bir qoshiq qonimdan kechasiz. – Bir qoshiq qonimdan kechasiz, deydir... Ajabo, uning kechadurg'on qoni qoldimu erkan o'zi? (U.s.1.)* Bir qoshiq qonidan kechmoq (yoki o'tmoq) – Gunohini kechirib, o'limdan qoldirmoq, afv etmoq (O'TIL, 5-jild, 328-b.).

Romanlarda davr muhitini ishonarli tasvirlash maqsadida zamonaviy iboralarning arxaik variantlari qo'llangan. Ishda sir boy bermoq, etokini tutmoq, qulog'iga qo'rg'oshinday quyib olmoq, dasti uzun, sichqonning ini ming dirham, oldiga ustixon tashlamoq kabi iboralar diskursiv tahlilga tortilgan. Asarlar diskursida muallif tomonidan shakllantirilgan okkazonal iboralar ham kuzatildi.

To'g'ri, ko'nglida To'xtamish o'g'lon beoqibat chiqmasmikin, degan shubha ham bor, lekin unga quloq solishni istamaydi... (U.s.2) Odatda, quloq solmoq, ya'ni eshitib e'tibor qaratmoq iborasi shaxsga nisbatan qo'llanilib, nutq va ovoz akti bilan bog'liq harakat hisoblanadi. Yuqorida berilgan misolda esa unga quloq solishni istamadi birikmasida “u” olmoshi shubha tushunchasiga ishora qilishini nazarda tutsak, shubhaga quloq solmoq mavhum otga nisbatan qo'llanilib, yozuvchining individual iborasi hisoblanadi.

Asarlarda qo'llangan iboralarni ham grammatik nuqtayi nazardan tavsiflash mumkin: sifat-iboralar: boshi ochiq (yolg'iz, nikohlanmagan), ko'zining oq-u qorasi (yakka, yolg'z), bir oyog'i go'rda (qari, keksa) kabi; ravish-iboralar: *sichqonning ini ming dirham* (bezovta); oyog'i ostida, qo'l ostida (tasarrufida) kabi; fe'l-iboralar: oyog'iga bosh urmoq (yalinmoq), ko'zini ochmoq (tushunmoq); kirish birikma-ibora: *dastingdan ketay*. Adib tarixiy romanlarida aks etgan ijtimoiy muhitga mos tarzda muallif iboralari ham kuzatildi.

⁴² Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – Б. 207.

XULOSA

1. Lingvopoetik tadqiqotlar doirasi umumfilologik yoʻnalish sifatida badiiy uslubning oʻziga xos xususiyatlari, olamni badiiy idrok etish tamoyillari uni boshqa diskursiv doiralardan ajratib turuvchi belgilari sifatida namoyon boʻlishi nuqtayi nazaridan “badiiy diskurs” atamasi keng qoʻllanila boshlandi. Tadqiqotimiz obyektini aniqlashtirishda ana shu konseptual strukturaning tarkibiy qismi oʻlaroq, “tarixiy romanlar diskursi” deb belgiladik.

2. Muhammad Alining tarixiy romanlari oʻzbek xalqi tarixidagi eng yorqin davr – Sohibqiron Amir Temur va temuriylar davri badiiy lisoniy manzarasida oʻzining butun mazmun-mohiyati bilan aks ettirilgan boʻlib, tarixiylik tamoyili asosida oʻsha zamon va makon koloritini beruvchi til birliklarining faol qoʻllanganligi bilan xarakterlanadi.

3. Adibning tarixiy romanlari diskursida oʻzbek tilining ifoda imkoniyatlari oʻziga xos ifoda yoʻsini, turli maʼno tovlanishlari, goʻzal ifoda va tashbehlar, okkazional birikmalar bilan boyitilgan. Shu nuqtayi nazardan, Muhammad Ali tarixiy asarlarining lisoniy xususiyatlarini oʻrganish lingvopoetik tadqiqot uchun boy manba hisoblanadi.

4. Muhammad Ali tarixiy romanlari diskursi doirasida tarixiy davrni ifoda qiluvchi soʻzlarni leksik-semantik jihatdan 12 ta maʼnoviy guruhga hamda soʻz turkumlari jihatdan 8 ta guruhga va oʻrni bilan ichki guruhlarga boʻlib oʻrgandik.

5. Olamning lisoniy manzarasini yaratishda yozuvchining uslubiy oʻziga xosligi muallif nutqida koʻplab tanlangan, saralangan til birliklaridan foydalanishda namoyon boʻladi. Quyidagi jihatlar Muhammad Ali tarixiy romanlarining muvaffaqiyatini taʼminlovchi omil sifatida namoyon boʻlgan:

- sinonimik qatordagi nisbatan qadimiy boʻlgan sof turkiy arxaik soʻzni ishlatish;

- oʻzbek tilining faol lugʻat tarkibiga oʻzlashmagan, lekin mumtoz adabiyot namunalarida qoʻllaniladigan soʻzlardan foydalanish;

- arabcha, forsha izofalarning faol qoʻllanilishi;

- sinonimik qatordagi soʻzlarning arabiy, forsiy variantlarini qoʻllash;

- feʼllarning nisbatan eskirgan shakllarini qoʻllash;

- masofa birliklari va tushunchalarining tarixiy asar mazmuniga muvofiq tarzda tarixiy shakllarda yoki zamonaviy soʻzlar yordamida birikmalar tuzgan holda berilishi;

- sanalarning hijriy shaklda yoki milodiy hisob bilan, oylar esa tasvirlanayotgan davr anʼanasiga koʻra islomiy taqvim asosida berilishi.

6. Eskirgan soʻzlarning sinonimik, antonimik, omonimik, graduonimik va gipo-giponimik, partonimik munosabatlari tahlili orqali Amir Temur va temuriylar davri ijtimoiy muhitini yorqin boʻyoqlarda tasvirlash maqsadida tarixiy soʻzlardan samarali foydalanilganligi yaqqol namoyon boʻladi. Xususan, graduonimik qatorning hududning kattaligi, hujjatning muhimligi, pul miqdori, uy-joy hajmi, soliqlarning ijtimoiy mohiyati, ijtimoiy tuzilma darajasi, tarixiy transport vositasining imkoniyati va ijtimoiy-harbiy unvon darajasiga koʻra turli koʻrinishlari aniqlandi.

7. Muhammad Ali tarixiy asarlarida metafora asosidagi ko‘chimlar vositasida matnning ta’sirchanligi oshirilgan hamda yozuvchining badiiy niyati aniq va yorqin tasvirlangan, ko‘zlangan maqsad o‘quvchiga yanada tez va oson yetkazilgan. Metafora va qisman metonimiya asosidagi ko‘chma ma’noli so‘zlar vositasida voqea-hodisalarni yorqin tasvirlash, voqelik mohiyatini ravon yetkazish o‘ziga xos ifoda yo‘sini sifatida namoyon bo‘lgan. Ko‘p o‘rinlarda tasvir bayonida personaj o‘y-kechinmalari fonida polifonik ifoda qatlami hosil bo‘lganligi ijodkor→asar→adresat munosabatining badiiy-estetik tabiatini kuchaytirgan.

8. Muhammad Ali o‘zbek tilidagi serqirra ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan mahoratli adib sifatida, ko‘pincha, she’riy asarlarda kuzatiladigan oksyumoron badiiy ifoda vositasini ham muvaffaqiyatli qo‘llay olgan.

9. Muhammad Alining tarixiy romanlarida hissiy bo‘yoqdorlik va ekspressivlikni kuchaytirishda epitetlardan samarali foydalanilgan, okkazional birikmalar muallif epitetlari sifatida fikrni quyuq bo‘yoqdorlikda ifodalashga xizmat qilgan. Tarixiylik tamoyili asosida yuqori tabaqa vakillariga murojaat qilingan o‘rinlarda tantanali nutqqa xos ko‘tarinki, balandparvoz epitetlar qo‘llangan.

10. Iboraning lingvopoetik imkoniyatlari cheksiz bo‘lib, faol estetik-stilistik vositalardan biri sifatida fikrni obrazli tarzda ixcham va lo‘nda ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Yozuvchi Muhammad Ali iboralar zamiridagi ma’nolarning yangicha qirralarini ochish, iboraning leksik tarkibini o‘zgartirish yoki yangicha majoziy va obrazli ma’nolar kiritish kabi usullardan mohirona foydalangan. Adibning tarixiy romanlarida tasvirlanayotgan davr muhitini ishonarli tasvirlash maqsadida bugungi kunda qo‘llaniladigan iboralarning arxaik variantlari keng qo‘llangan. Shuningdek, tarixiy roman diskursida muallif tomonidan shakllantirilgan okkazional iboralar ham faol qo‘llanilib, bunday iboralar asarning badiiy qimmatini yanada oshirgan.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ DSc.03/2025.27.12.Fil.07.03
ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ЖУРАЕВА НАСИБАХОН ГАНИЕВНА

**ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ДИСКУРСА
ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНОВ
(на материале произведений Мухаммеда Али)**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2025.1.PhD/Fil5458.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Андижанского государственного университета (www.adu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyounet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель:

Шахабитдинова Шохида Хошимовна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Усманов Фарходжон Фахриддинович
доктор филологических наук, доцент

Тошхужаева Шоирахон Ганиевна
доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент


Ведущая организация:


Наманганский государственный университет


Защита диссертации состоится « 8 » апреля 2026 г. в 14⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета по присуждению научных степеней DSc.03/2025.27.12.Fil.07.03 при Андижанском государственном университете. (Адрес: 170100, Республика Узбекистан, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Телефон/факс: 0 (374) 223 88 30, e-mail: agsu_info@edu.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного университета (зарегистрирован под номером 231). (Адрес: 170100, Республика Узбекистан, г. Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: 0 (374) 223 88 14).

Автореферат диссертации был распространен « 26 » марта 2026 года. (Протокол № _____ от « _____ » _____ 2026 г.).




Д.Х.Куронов
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор


Н.Н.Азизов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD), филологическим наукам


М.М.Сайдхонов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, д.ф.н., доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Одним из постоянных актуальных вопросов в мировом языкознании является исследование и анализ языковых особенностей художественного дискурса как платформы, на которой отображается исторический прогресс конкретного национального языка и возможности его выражения в целом. Язык является не только средством общения между людьми, но и средством эмоционально-выразительного воздействия на слушателя, передающего будущему поколению, вобрав в себя огромное духовное богатство, приобретенное носителями языка. Это проявляется через его коммуникативные, кумулятивные и экспрессивные функции.

В узбекской лингвистике сегодня также уделяется серьезное внимание изучению языка художественных произведений на основе современных методов исследования, в частности лингвопоэтических и лингвокультурных принципов. В частности, в дискурсе узбекских исторических романов важное значение имеет художественная реализация языковой картины мира, исследование исторических языковых единиц на основе принципов лингвокультурного и лингвопоэтического анализа. В дискурсе узбекских исторических романов вопрос о раскрытии умения писателя отображать языковую картину мира того времени, в котором изображена действительность, практически не исследован. Данное обстоятельство определяет актуальность темы исследования. Поскольку “Нам предстоит еще многое сделать, чтобы более полно задействовать возможности узбекского языка, повысить его статус и привлекательность на мировой арене. Государственный язык, как это происходит в высокоразвитых демократических странах, должен прежде всего служить сплочению общества, всех граждан в единый народ, независимо от их языка и национальности”¹.

Данное диссертационное исследование служит в определенной степени осуществлению задач, поставленных в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-2789 “О мерах по дальнейшему совершенствованию организации, управления и финансирования деятельности Академии наук, научно-исследовательских работ” от 17 февраля 2017 года, № ПП-2909 “О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования” от 20 апреля 2017 года, Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5850 “О мерах по коренному повышению престижа и статуса узбекского языка как государственного” от 21 октября 2019 года, № УП-6084 “О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в нашей стране” от 20 октября 2020 года, № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы”

¹ Мирзиёев Ш.М. O‘zbek tili bayramining 35 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan tabrigi ||<https://president.uz>. (Дата обращения: 24.11.2024)

от 28 января 2022 года, а также других нормативно-правовых актах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследований основным приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развитие науки и технологий Республики I. "Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики".

Степень изученности проблемы. Известно, что если в художественном дискурсе поэты и писатели, с одной стороны, умело используют богатство живого народного языка, чтобы придать произведению привлекательность, то в то же время образно-стилистически окрашенные выражения, присущие национальному менталитету, сформированному творческим мышлением и путем самовыражения, обогащают общенациональный язык. Поэтому приобретает важное значение лингвопоэтическое и лингвокультурное изучение языка и стиля исторических произведений, изображающих реалии тех периодов, которые оставили глубокий след в жизни народа. В современной лингвистике исследования по вопросу языка художественного произведения – это отрасль науки, стоящая на пороге развития в сотрудничестве с рядом направлений научно-методической направленности: когнитивной лингвистикой, прагмалингвистикой, лингвокультурологией, социолингвистикой и психолингвистикой.

В мировом языкознании расширяется структурная сфера лингвопоэтических исследований, проводятся исследования лингвокультурных, социолингвистических, психолингвистических и прагмалингвистических особенностей художественного дискурса, особенно прозаических произведений. В исследованиях исследуются такие вопросы, как основа данных подходов, методологические технологии, когнитивно-прагматическое исследование языковых единиц в художественном дискурсе.

В западном и русском языкознании в исследованиях В.Виноградова, Г.О.Винокура, А.А.Потебни, Л.В.Щербы, В.М.Жирмунского, В.А.Ларина, Р.Барта, А.А.Липгарта, У.М.Лотмана² и в узбекской лингвистике Б.Юлдашева, С.А.Каримова, И.К.Мирзаева, М.Юлдашева, Д.С. Худойберггановой³ и многих

² См.: Виноградов В. Стиль Пушкина. – М.: 1-я Образцовой типографии ОГИЗА РСФСР треста "Полиграфкнига", 1941. – 619 с. <https://n.ziyouz.com/books>. (Дата обращения: 29.08.2024); Виноградов В.В. Избранные труды. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976. – 512 с.; Винокур Г. Очерки по лингвистике. – М.: Издательство иностранной литературы, 1962. – 646 с.; Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Высшая школа, 1990. – 344 с.; Щерба Л. В. Языковая система и речевая деятельность. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – 432 с.; Жирмунский В.М. Поэтика А. Блока / Жирмунский В.М. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977. – С. 205 – 238; Ларин Б.А. Эстетика слова и язык писателя. – Л.: Художественная литература, 1974. – 288 с.; Барт Р. Избранные работы: Семиотика. Поэтика. – М.: Прогресс, 1989. – 616 с.; Липгарт А.А. Лингвопоэтическое сопоставление. Теория и метод. – М.: Московский лицей, 1994. – 184 с.; Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: КомКнига, 2006. – 168 с.; Лотман Ю.М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – СПб.: Искусство, 1996. – 846 с.

³ См.: Йўлдошев Б., Шодиев З. "Уфқ" трилогиясининг лингвопоэтик тадқиқи масалалари. – Самарқанд, 2006. – 126 б.; Каримов С. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари. Ўқув қўлланма. – Самарқанд: СамДУ, 1994. – 72 б.; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Ташкент, 1992. – 43 с.; Йўлдошев М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол.

других ученых совершенствовались теоретические вопросы лингвопоэтики сначала на основе стилистики, а затем и как самостоятельного направления. В узбекском языкознании исследования языковых особенностей художественных произведений, определяемые как отдельная проблема, проводились в широком масштабе и в разных аспектах. Также в последующие годы на основе современных направлений и новых взглядов в мировом языкознании в узбекской лингвистике усилилось внимание к различным интерпретациям, посвященным теоретическому исследованию языковой картины мира⁴.

Как известно, одним из актуальных направлений в мировом языкознании становится исследование художественной языковой картины мира как специфического выражения национально-культурного менталитета. Исследования, проводимые до сих пор в нашей лингвистике с точки зрения языковой картины мира, в основном направлены на освещение вопросов когнитивного и концептуального подходов. Но лингвистическое исследование дискурса узбекских исторических романов не являлось объектом специального исследования в рамках лингвопоэтического анализа.

Вместе с тем, вопрос о раскрытии в исторических произведениях умения писателя отражать языковую картину мира того времени также нельзя считать достаточно изученным в узбекском языкознании. В связи с этим изучение языковых особенностей исторических сочинений Мухаммада Али является богатым ресурсом для лингвопоэтических исследований.

Народный писатель Узбекистана Мухаммад Али – один из писателей, который в настоящее время занимает свое место и положение в узбекской литературе благодаря серии романов “Сарбадары”, “Великий султанат”. Хотя эти исторические романы были широко изучены с точки зрения литературоведения⁵, но они все еще не были объектом лингвистических исследований.

Связь темы исследования с научно-исследовательской работой высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Исследование проводилось на основе плана научных исследований по теме “Приоритетные направления языкознания XXI века”, изучаемых на кафедре методики начального образования Андижанского государственного педагогического института.

фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2008. – 313 б.; Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 256 б.; Худойберганова Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

⁴ См.: Nasrullaeva N.Z. Ingliz va o‘zbek tillarida olamning frazeologik manzarasida gender konseptlarning shakllanishi: Filol. fan. dok. (DSc) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2018. – 71 b.; Ikramova S.A. Olamning lisoniy manzarasida makon kategoriyasi va milliy o‘ziga xoslik: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2018. – 51 b.; Baynazarov Z. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk” asarida ifodalangan olamning lisoniy manzarasi: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 44 b.; Nasirova G.M. Olamning lisoniy manzarasida emotsional konseptlar: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Qo‘qon, 2022. – 59 b.; Akbarova Z. Olam lisoniy manzarasining shakllanishida kognitiv o‘ziga xoslik: Filol. fan. b. fal. dok. (PhD) ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2021. – 76 b.

